

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA INSON VA FUQARO
HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI TIZIMINING MUSTAHKAMLANISHI**

Kenjayev Zarmamat

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti, dotsent

Abdullayeva Farangiz

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari tizimining shakllanishi va mustahkamlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Konstitutsiya va so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-mhuquqiy hujjatlarning mazkur sohasidagi o'rni, ularning xalqora huquq normalari bilan uyg'unligi hamda huquqlarni kafolatlash mexanizmlarining takomillashuvi yoritiladi. Shuningdek, sud – huquq islohitlari, inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar faoliyat, fuqarolik jamiyati va ommoviy axborot vositalarining roli muhokama qilinadi. Maqolada huquq va erkinliklarni ta'minlashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosalar beriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari izchil ravishda kuchyib borayotganini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *inson va fuqaro, konstitutsiya, inson huquqlari, qonunchilik, fuqarolar erkinliklari, demokratiya, qonun ustuvorligi, huquq, yurisdiksiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс формирования и укрепления системы прав человека и гражданских свобод в законодательстве Республики Узбекистан. В исследовании освещается роль Конституции и нормативно-правовых актов, принятых в последние годы в этой области, их соответствие международному праву, а также совершенствование механизмов гарантирования прав. Рассматриваются также судебные и правовые реформы, деятельность институтов защиты прав человека, роль гражданского общества и средств массовой информации. В статье представлены научные выводы о существующих проблемах обеспечения прав и свобод и путях их устранения. Результаты исследования показывают, что институционально-правовая база обеспечения прав человека в Узбекистане последовательно укрепляется.*

Ключевые слова: *человек и гражданин, конституция, права человека, законодательство, гражданские свободы, демократия, верховенство права, право, юрисдикция.*

Abstract: *This article analyzes the process of formation and strengthening of the system of human and civil rights and freedoms in the legislation of the Republic of Uzbekistan. The study highlights the role of the Constitution and regulatory legal acts adopted in recent*

years in this area, their compliance with international law, and the improvement of mechanisms for guaranteeing rights. It also discusses judicial and legal reforms, the activities of institutions protecting human rights, the role of civil society and the media. The article provides scientific conclusions on the existing problems in ensuring rights and freedoms and ways to eliminate them. The results of the study show that the institutional and legal framework for ensuring human rights in Uzbekistan is consistently strengthening.

Keywords: man and citizen, constitution, human rights, legislation, civil liberties, democracy, rule of law, law, jurisdiction.

Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamolot topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlari. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o‘z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantig‘iga ega. Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod“ bosqichi haqida ko‘rsatilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat. Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi. Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta’siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro‘y berdi. Inson huquqlarining „uchinchi avlodi“ „hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e’tirof etilgan qoidaga ko‘ra bu huquqlar: tinchlikka bo‘lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo‘lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar. Insonning o‘z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zining moddiy ifodasini topgan:

Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil);

Huquq to‘g‘risidagi petitsiya (1628-yil);

„Habea Cozpus AKT“ (1679-yil);

Huquqlar to‘g‘risidagi bill (1689-yil);

Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);

Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);

Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (1996-yil) va boshqalar.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo‘lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo‘lmasa-da hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko‘lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta’sir ko‘rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo‘lib, u dunyoning ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. (-modda) Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og'ir jinoyat hisoblanadi (-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi xuquqiga ega (-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (35-modda).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'ravonligidan huquqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Inson huquqlari va kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6, 7,8,9,10 -boblarida berilgan.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlari Huquqiy vositalar va yurisdiksiya Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Jeneva konventsiyalarida va BMTning turli shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari, garchi ular yuridik kuchga ega bo'lsa-da, lekin amalda ularning ko'pchiligini huquqiy himoya qilish juda qiyin, chunki ma'lum qoidalarni qo'llash bo'yicha konsensus yo'q. huquqlar, tegishli milliy qonunchilik yoki ularni ta'minlash choralarini ko'rishga vakolatli organlarning yo'qligi. Inson huquqlarining ayrim jihatlari bo'yicha butun dunyo bo'ylab mandat yoki yurisdiksiyaga ega bo'lgan bir qator xalqaro tan olingan tashkilotlar mavjud: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro sud asosiy sud organi bo'lib, butun dunyo bo'ylab yurisdiksiyaga ega va BMT xavfsizlik kengashi tomonidan boshqariladi. Xalqaro sud davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qiladi, lekin shaxslar ustidan yurisdiksiyaga ega emas. Xalqaro jinoiy sudi harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar o'z yurisdiksiyasi doirasida sodir bo'lgan taqdirda tergov qilish va jazolash uchun mas'ul organ bo'lib, 2002-yilda tashkil etilganidan buyon sodir etilgan bunday jinoyatlar uchun javobgarlarni javobgarlikka tortish vakolatiga ega. BMTning bir qator a'zolari sudga qo'shilmagan va sud bu mamlakatlar fuqarolari ustidan yurisdiksiyaga ega emas, boshqalari esa sudni tashkil etgan Rim statutini imzolagan, lekin hali ratifikatsiya qilmagan. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini mustahkamlash va ta'minlashning demokratik tamoyillari Demokratiya va Qonun ustuvorligi tushunchalari ma'lum darajada inson huquq va erkinliklari bilan davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarni tushunish bilan bog'liq. Har qanday shaxs ma'lum darajada erkinlik bilan ta'minlangan. Biroq, shaxs o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarishda boshqa shaxslarning – o'zi kabi jamiyat a'zolarining manfaatlarini hisobga olishi kerak. Bu shaxs erkinligini ma'lum darajada qonun bilan cheklashdir. *Erkinlik* – bu shaxsning o'z xatti-harakatlarini ongli-ixtiyoriy tanlash qobiliyati va imkoniyati. Bu insonning tashqi sharoit va sharoitlardan ma'lum bir mustaqilligini nazarda tutadi. *Huquq* – har doim erkin fuqarolarning birgalikda yashashi uchun zarur bo'lgan shaxs erkinligini qisman cheklashdir. Huquq toifalari uchta asosiy turga bo'linadi: ajralmas huquqlar (asosiy), vaqtincha daxlsiz va to'liq daxlsiz.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari tizimini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyaviy normalarning takomillashuvi, yangi qonun va qonunosti hujjatlarning qabul qilinishi hamda xalqaro huquqiy standartlarning milliy qonunchilikka izchil joriy etilishi ushbu sohada muhim huquqiy poydevor yaratdi. Sud-huquq tizimidagi islohotlar, inson huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil institutlar faoliyatining kengayishi va fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi huquq va erkinliklarni real hayotda ta'minlash imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonunlarni amalda qo'llash samaradorligini oshirish masalalari dolzarrligicha qolmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishda izchil islohotlarni davom ettirish inson va fuqaro huquqlarini yanada to'liq kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Glendon, Mary Ann (July 2004). The Rule of Law in The Universal Declaration of Human Rights. Northwestern University Journal of International Human Rights 2 (5). Archived from the original on 20 July 2011. Qaraldi: 7 January 2008. Ins on huquqlari]]
3. Paul Gordon Lauren „First Principles of Racial Equality: History and the Politics and Diplomacy of Human Rights Provisions in the United Nations Charter“, Human Rights Quarterly 5 (1983): 1–26.
4. Henry J. Richardson III, „Black People, Technocracy, and Legal Process: Thoughts, Fears, and Goals“, in Public Policy for the Black Community, ed. by Marguerite Ross Barnett and James A. Hefner (Port Washington, N. Y.: Alfred Publishing, 1976), p, 179.
5. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi 1993-yil, 42-bet
6. Klitou, Demetrius The Friends and Foes of Human Rights (ebook)
7. Kolesova N. S. Osnovnie prava i svobod i grahdanina vo Fransii. Dis. ... kand. yurid. nauk. – M., 1994. – S.25-40.
8. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
9. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari 5.2 (2025): 27-31.
10. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
11. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR 1.2 (2024): 48-51.
12. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 1285-1287.
13. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION 1.2 (2024): 83-88.
14. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI." TAMADDUN NURI JURNALI 1.64 (2025): 253-255.

15. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." Философия и право 26.3 (2023): 232-235.
16. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." Farg'ona davlat universiteti,(3) (2023): 67-67.
17. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJI VA OGOHLIK TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHIYATI." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.
18. Nomozov Xurshid. "AXBOROT JAMIYATI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI;(FALSAFIY TAHLIL QILISH)." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.
19. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.
20. Ro'ziboyev, Dilshod. "QASHQADARYO VOHASIDA QORAKO 'LCHILIKKA BO 'LGAN E'TIBOR." TAMADDUN NURI JURNALI 9.60 (2024).
21. Ro'ziboyev, Dilshod A'Zam O. "QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O 'RNI VA SOVET HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.11 (2022): 1008-1016.
22. Рўзібоев, Дилшод Аъзам Ўғли. "XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.3 (2022): 943-952.
23. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.
24. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING GNOSEOLOGIK JIHATI VA PRAKSIOLOGIK QIYMATI." SHOKH LIBRARY (2025).
25. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING NAZARIY JIHATLARI VA PRAKSIOLOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 1.5 (2025): 140-146.
26. Ниёзов, С. С. "Перспективы развития экотуризма в Узбекистане." Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика. 2022.
27. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ МОЛОДОГО ПЕДАГОГА." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 5 (2018): 43-44.
28. Sayxonovna, Maksadova Mekhriniso. "PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071 11.04 (2022): 15-20.
29. Sayxonovna, M. M. (2022). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING. ASIA

PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836
Impact Factor: 8.071, 11(04), 15-20.

30. Maksadova, Mehriniso. "INTEGRATION OF YOUNG TEACHERS INTO THE PROFESSIONAL ENVIRONMENT." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.2 (2025): 1117-1121.

31. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 3 (2015): 105-108.

32. O'G'LI, ABDULLAYEV XURSHID MUXTOR, and KENJAYEV ZARMAMAT. "AXBOROTNING JAMIYATDAGI O 'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 32-34.

33. Kenjaev, Zarmamat. "POLITICAL CULTURE: THE BASIS OF STATE STABILITY AND WELL-BEING OF CITIZENS." *НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ*. 2021.

34. Kenjaev, Zarmamat Tuymurodovich. "The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 822-825.

35. Kenjaev, Z. T. (2021). The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 822-825.

36. Nurillayevich, Omonov Bahodir. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARNING KUCHAYISHI VA UNGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI." *Conferences*. Vol. 1. No. 3. 2025.

37. Nurillaevich, Omonov Bakhodir. "MANIFESTATIONS OF THE ANCIENT ECOLOGICAL WORLDVIEW." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 6. 2025.

38. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ." *International Journal American Journal of Modern World Sciences* 2.11 (2025): 61-73.

39. OMONOV, Baxodir. "ETNIK NIZOLARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI GEOSIYOSIY MUNOSABATLARIGA TA'SIRI." *«ACTA NUUZ»* 1.1.1 (2025): 164-166.